

## **“OLX.UZ manbalariga cheksiz kirish” aksiyasi qoidalari**

**“OLX.UZ manbalariga cheksiz kirish”** aksiyasi (keyingi o‘rinlarda – Aksiya) “Humans” mas’uliyati cheklangan jamiyati, manzil: 100047, o‘zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Maxtumquli ko‘chasi, 2B uy, STIR 306624856 (Provayder) tomonidan o‘tkaziladi, va taqdim etiladigan servislar sonini kengaytirish, Provayder tomonidan ko‘rsatiladigan aloqa xizmatlariga qiziqishni oshirishga qaratilgan.

### 1. Aksiya haqida ma’lumot

1.1. Mazkur Qoidalarda bosh harflardan boshlanadigan so‘zlar atamalar hisoblanadi. Atamalar ma’nosi HUMANS aloqa xizmatlarini taqdim etish Shartlarida keltirilgan, ular provayder tomonidan tasdiqlangan hamda [www.humans.uz](http://www.humans.uz) saytida joylashtirilgan HUMANS aloqasi xizmatlarini ko‘rsatish Shartlarida, shuningdek Tariflar tavsifida keltirilgan (agar ushbu Qoidalarda boshqasi belgilanmagan bo‘lsa).

1.2. Aksiya Ishtirokchilari – Humans aloqa xizmatlarini taqdim etish Shartlarini qabul qilgan tarzda aloqa xizmatlarini taqdim etish Shartlari bo‘yicha Operator bilan Shartnoma tuzgan hamda [olx.uz](http://olx.uz) manbasiga ulanish paytida istalgan pulli tarif rejasini ulagan jismoniy shaxs hisoblanuvchi Mijozlar .

1.3. Aksiya o‘tkaziladigan hudud: o‘zbekiston Respublikasi

1.4. Aksiyaning o‘tkazilish davri: 15.12.2020-y. dan 31.03.2021-y. gacha.

### 2. Aksiya tavsifi

2.1. Aksiyaning o‘tkazilish Davrida Aksiya Ishtirokchisi [olx.uz](http://olx.uz) manbalariga – [olx.uz](http://olx.uz) veb-saytiga va quyidagi havolalar orqali mobil ilovaga bepul kirish imkoniga ega bo‘ladi  
<https://play.google.com/store/apps/details?id=com.torg.torg&hl=ru>,  
<https://apps.apple.com/uz/app/torg-uz/id665094472?ign-mpt=uo%3D4>.

2.2. Aksiya amal qilish davri yakunlanganidan so‘ng [olx.uz](http://olx.uz) manbalariga kirish Tariflar tavsifiga muvofiq umumiy asosda taqdim etiladi.

### 3. Yakuniy qoidalar

3.1. Mazkur Qoidalar Provayder Saytida e'lon qilingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi. Provayder ushbu Qoidalarni bir tomonlama tartibda o‘zgartirish yoki Aksiyani bekor qilish huquqiga ega, buning uchun u Saytda tegishli xabarni joylashtirgan holda bu haqda oldindan ma'lum qilishi kerak. Saytda tegishli ma'lumot joylashtirilgan sana ma'lum qilish sanasi hisoblanadi. Saytda tegishli ma'lumot e'lon qilingan vaqtdan boshlab Qoidalar o‘zgartirilgan, Aksiya esa bekor qilingan hisoblanadi.

3.2. Qoidalarning 2-bo‘limida sanab o‘tilgan harakatlarning Mijoz tomonidan bajarilishi jismoniy shaxslarga yo‘llangan oferta hisoblangan Qoidalar bilan to‘liq va so‘zsiz rozilikni anglatadi.